
AFROSIYOB SHIFO: FARMATSEVTIKA YAQIN KELAJAKDA FARG'ONA IQTISODIYOTINING YIRIK TARMOG'IGA AYLANADI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi Afrosiyob ko'chasida barpo etilayotgan "Afrosiyob shifo" farmatsevtika korxonasida bo'lib, qurilish ishlari va loyiha jarayonlari bilan tanishdi.

Iqtisodiyotning diversifikatsiyasi natijasida so'nggi yillarda farmatsevtika sohasi ham viloyat iqtisodiyotida salmoqli ulushga ega bo'lishga boshladi.

Umumiy loyiha qiymati 7,8 million AQSh dollariga teng bo'lган ushbu korxona foydalanishga topshirilgach, bu hajm yanada ortadi.

Natriy xlor, metrid, metronidazol, orsa, glyukoza va boshqa jami 48 turdag'i dori-darmonlar va eritmalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladigan ushbu korxonada hozirda qurilish ishlari yakuniy bosqichga kirib, uskuna va jihozlar keltirilmoqda. Korxona kelgusi yilning yanvar-fevral oylarida ish boshlashi ko'zda tutilgan.

3,8 million dollar tadbirkorning o'z mablag'lari hamda 4 million dollar Mikrokreditbank krediti hisobiga barpo etilayotgan korxonada 180 dan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-10-19 10:11:17